

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**BAXTIYAROVA FOTIMAXON SODIQOVNA**

**O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATIDA ASTRONOMIYAGA OID  
TERMINLARNING BERILISHI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Guliston – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Baxtiyarova Fotimaxon Sodiqovna**

O‘zbek tilining izohli lug‘atida astronomiyaga oid terminlarning berilishi.....3

**Бахтиярова Фотимахон Содиковна**

Приведение астрономических терминов в Толковом словаре узбекского  
языка.....23

**Bakhtiyarova Fotimakhon Sodikovna**

The Issuance of Terminology Related to Astronomy in the Explanatory  
Dictionary of the Uzbek language .....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....48

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**BAXTIYAROVA FOTIMAXON SODIQOVNA**

**O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATIDA ASTRONOMIYAGA OID  
TERMINLARNING BERILISHI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Guliston – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3259 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoyi nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasida ([www.guldu.uz](http://www.guldu.uz)) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Abdullayev Jumanazar Xudoyberdiyevich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "7" 12 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21 raqamli bilan ro'yxatga olingan) Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (867) 225-40-42.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "22" 11 kuni tarqatildi.

(2024-yil "22" 11 dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.R.Mamatqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.A.Axrоров**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**F.G.Sharipov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida leksikografiyaning alohida tarmog‘i sanalgan terminologiyaning mustaqil yo‘nalish sifatida tadqiq etilishi, jumladan, milliy terminologiya va terminografiyaning takomillashuvi o‘zbek terminologiyasining, xususan, astronomiya sohasiga oid terminosistemaning ham isloh qilinishini talab etmoqda. Bu esa millatlararo madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalar qatorida astronomiya sohasidagi ilmiy izlanishlarga bo‘lgan ehtiyoj ortishi bilan birga mazkur sohaga oid terminlarning leksikografik talqinini o‘rganishni, ularning genealogik, struktural-semantik jihatlarini izchil talqin qilish, sohaga oid terminlarni tartibga solish asosida ularni o‘zbek tili milliy korpusida semantik teglash kabi terminlarning izohli lug‘atlarda berilishini mukammallashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyo tilshunosligida terminologiyaning umumiy masalalari va soha terminlari tadqiqiga bag‘ishlangan xilma-xil terminologik lug‘atlarning yaratilishi, ularni fan va sohalarga tatbiq etishga bag‘ishlangan monografiya, dissertatsiya hamda ilmiy risolalarning nashr etilishi bo‘yicha keng-ko‘lamli tadqiqotlar olib borilib, mazkur izlanishlarda terminlarni izohli lug‘atlarda berilishi va ularning semantik tavsifini takomillashtirish asosida terminlarni til korpusida semantik teglash, lingvistik muammosini ochib berish jarayonlariga asosiy obyekt sifatida qaralmoqda. Bu tajribalar o‘zbek tili terminologiyasining nazariy va amaliy masalalarini hal etish uchun poydevor hisoblanadi. Muayyan tilning terminologik tizimlari, xususan, tilning umumiy boyligini ko‘rsatib beruvchi izohli lug‘atlar tadqiqi masalalari har qanday tilshunoslik uchun dolzarbdir.

Mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘quv-metodik ta‘minotini yaxshilash, mavjudlarini isloh etish sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o‘zbek tilining taraqqiyoti va rivojini yanada yuksaltirish yo‘lida tilning lug‘at boyligini chuqur tadqiq etish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Shuningdek, til ijtimoiy hayot bilan bog‘liq tarzda taraqqiy etib borar ekan, lug‘atlar yaratish ishining mukammallashtirilishi, lug‘at bazasining boyitilib, yangilanib borilishini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish zarurati mavjud. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida “har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz va shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz zarur”<sup>1</sup> ligi kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada mavjud lug‘atlarni tahlil etish, fan sohasining taraqqiyotini belgilovchi soha terminologiyasiga oid izohli lug‘atlarning ta‘minoti, terminografiyaga oid tadqiqotlarni yanada takomillashtirish nuqtayi nazaridan soha terminlarining leksikografik xususiyatlari tadqiqi masalalariga alohida e‘tibor qaratish muhim hisoblanadi.

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. / Xalq so‘zi, № 218-son, 22.10.2019.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mavzu ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida terminologiya bo‘yicha olib borilayotgan ustuvor ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasiga kiradi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida terminologiya tadqiqi masalalariga doir salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, terminografiyaga oid umumiy filologik hamda sohaviy lug‘atlar, ularni tartiblash, terminologik birliklarning soha bo‘yicha o‘xshash va farqli jihatlarini ajratib ko‘rsatish, shuningdek, ularni umumiy filologik yoki maxsus lug‘atlarda keltirish borasida qator yutuqlar qo‘lga kiritilgan<sup>2</sup>.

O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalari A.Hojiyev, H.Dadaboyev, N.Mahkamov, H.A.Jamolxonov, H.V.Mirzaxmedova, M.E.Umarxo‘jayev, I.Yuldashev, Z.Mirahmedova, G‘.M.Ismoilov S.Mustafayeva, S.Muhamedova, A.I.Primov, X.Paluanova, I.Ermatov va boshqalarning monografiya, dissertatsiya va lug‘atlarida yoritilgan.<sup>3</sup>

<sup>2</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов.–М.: Советская энциклопедия, 1966.–606 с.//Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии//Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – Москва: 1939.//Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научнотехническая информация. Серия 2.– М.,1991.//Суперанская А. В. Общая терминология: вопросы теории//А.В. Суперанская, Н. В. Подольская, Н. В. Васильева. – 6-е изд. – М.: Либроком, 2012. – 248 с.//Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ,1972.//Шевчук, В.Н. Военно-терминологическая система в статике и динамике : дис. ... д-ра филос. наук. – Москва, 1985. – 488 с.// Реформацкий А.А. Что такое термин и терминология//Вопросы терминологии. – М., 1961. – С. 46–54.//Головин Б.Н. О некоторых доказательствах терминованности словосочетаний//Лексика, терминология, стили. Вып. 2. – Горький: ГТУ, 1973. – С. 57- 65.//Лейчик В.М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. –Изд.4-е.Книжный дом: Либроком, 2009.

<sup>3</sup> Sun‘iy tafakkur atama va iboralarining inglizcha – o‘zbekcha izohli-tarjima lug‘ati (professor M.I. Umarxodjayevning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi). – Andijon: Andijon davlat universiteti nashriyoti, 2023. – 316 b.//Yuldashev I. O‘zbek kitobchilik terminologiyasi: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent: Fan, 2004.;//Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomik terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: Fan, 2010. – 128 b.;//Ismailov G‘. M. O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent: O‘zRFATAI, 2011. – 26 b.//Mustafayeva S. Xitoycha-o‘zbekcha tilshunoslik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazi, 2014. – 111 b.//

Xususan, mazkur mavzu atrofida bajarilgan ishlar sifatida o‘zbek tilshunos olimi A.I.Primovning<sup>4</sup> kosmonimlarning lisoniy xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiyasini ko‘rsatishimiz mumkin. Olim o‘z ishida astronomiya sohasining bir tarmog‘i hisoblangan kosmonimlar va ularning badiiy adabiyotlarda, shuningdek, xalq orasidagi nomlanishini tadqiq etadi. O‘zbek adabiyotshunosligida Saidbahrom Azizovning “Alisher Navoiy asarlarida falakiyot sirlari” nomli kitobini e‘tirof etish o‘rinli. Asarda Alisher Navoiy kosmogonik dunyoqarashi shakllanishida Ulug‘bek astronomiya maktabining o‘rni, Navoiy asarlarida falakiyot ilmiga oid ma‘lumotlar (astronomik jihozlar, olam modellari, osmon jismlari, samoviy hodisalar), shuningdek, shoir asarlaridagi astronomik ma‘lumotlarning manbalari haqida ma‘lumotlar berilgan<sup>5</sup>. Ammo o‘zbek tilshunosligida astronomiyaga oid terminlar, ularning izohi va leksikografik talqiniga doir masalalar, ularni til korpuslarida teglash muammolari hanuz tadqiqot mavzusi bo‘lmagan. Shu jihatdan o‘zbek tilshunosligida astronomiyaga oid terminlarning izohli lug‘atlarda berilishi va uni takomillashtirish masalalari dolzarbdir.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilidan amaliy foydalanish samaradorligi muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** astronomiyaga oid terminlarning o‘zbek tili izohli lug‘atlarida berilishi, semantik tavsifini takomillashtirish asosida ularni o‘zbek tili milliy korpusida semantik teglash, bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli terminlar uchun modellar yaratish lingvistik muammosini ochib berish va ilmiy asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek leksikografiyasida amalga oshirilgan (1981 hamda 2006–2008, 2023-yillardagi izohli lug‘atlarda mavjud astronomiyaga oid terminlar asosida) maxsus terminografik ishlar bo‘yicha umumiy xulosa shakllantirish;

astronomiyaga oidlikni ifodalovchi leksik pometa berilgan terminlarning statistik, etimologik, shakliy-struktur tavsifini keltirish;

tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan izohli lug‘atni takomillashtirishga xizmat qiluvchi takliflar berish;

izohli lug‘atda astronomiyaga oid terminlar izohini semantik tahlil va tavsif qilish asosida izohning takomillashuviga erishish;

terminlar uchun tasviriy misollarni zamon va soha talabiga ko‘ra qayta tanlash;

---

Muhamedova S va b. Bank-moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 157 b.  
Primov A. I. O‘zbek tili kosmonimlarining lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent: O‘zR FA TAI, 2009.// Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar./Monografiya. – Toshkent:BOOK TRADE, 2023. – 120 b.//Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati:umumta‘lim maktablari hamda akademik litsey va kollejlarda uchun. –Toshkent: Fan, 2013. –144 b. Paluanova X. Ingliz, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ekologik terminlarning derivatsion-semantik prinsiplari. Dokt.diss.avtoref. – Toshkent, 2016.

<sup>4</sup>Primov A. I. O‘zbek tili kosmonimlarining lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent: O‘zR FA TAI, 2009. – 24 b.

<sup>5</sup> Azizov S.Alisher Navoiy asarlarida falakiyot sirlari. –Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2018.136 b.

o‘zbek tili milliy korpusida astronomiyaga oid terminlarni semantik teglash muammosini hal qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida (1981-yilda nashr etilgan 2 tomli, 2006 – 2008-yillarda nashr etilgan 5 jildli hamda 2023-yildagi 6 jildli) mavjud astronomiyaga oid terminlar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida mavjud astronomiyaga oid terminlarning tavsifini mukammallashtirish, tasviriy misollarni yangilash, lug‘atga kiritilishi lozim bo‘lgan terminlarni korpusda semantik teglash masalasi tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil, statistik tahlil, tasniflash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilining izohli lug‘atida mavjud astronomiyaga oid terminlarning statistik va genealogik tavsifi amalga oshirilib, ularning turkiy, arabiy, forsiy, yevropa tillaridan o‘zlashganligi; derivatsion jihatdan tub va yasama; struktur jihatdan sodda va qo‘shma termin ekanligi tahlillar asosida dalillangan;

o‘zbek tilining izohli lug‘atida berilgan astronomiyaga oid terminlarning leksikografik sharhi bo‘yicha termin izohining havola usuli orqali boshqa so‘zga yo‘naltirilishi kabi takomillashtirilishi lozim bo‘lgan holatlar aniqlanib, kuzatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun to‘liqlik, ixchamlik, soddalik kabi tamoyillar tavsiya etilgan;

izohli lug‘atga astronomiyaga oid terminlarni tanlab olish uchun mazkur sohaga doir terminlarning mazmuniy guruhiga, yangilik bo‘yog‘iga, faollik darajasiga ko‘ra tanlash kabi mezonlar ishlab chiqilib, shu asosda Tarozi, Shimol yog‘dusi, Qora tuynuk, Chomich yulduzlar turkumi kabi jami ikki yuz yettita birlikka leksikografik baho berish orqali ularni o‘zbek tilining izohli lug‘atiga astronomiyaga oid termin sifatida kiritilishi ilmiy asoslangan;

izohli lug‘atda astronomiyaga oid terminlar uchun tasviriy misollar berish bo‘yicha dalilning soha adabiyotlaridan olinishi zaruriyligi, o‘zakdosh so‘z-terminlarga leksik pometaning qo‘llanishi shartligi, izohli lug‘atlar uchun bir ma’noli va ko‘p ma’noli astronomiyaga oid terminlarning modellarini yaratish, ularni maxsus korpuslarda semantik teglashga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘TILning yangi tahririga sohaviy terminologik birlik tanlash jarayoni uchun muayyan mezon ishlab chiqilgan hamda leksikografik birlikka uslubiy belgilar berilishiga oid amaliy xulosalar shakllantirildi;

lug‘atda astronomiyaga oid terminlarning berilishi bilan bog‘liq texnik va semantik izohiga doir xatoliklar tahlillar bilan isbotlandi;

tadqiqotchi tomonidan shakllantirilgan ilmiy xulosalar nafaqat umumiy, balki maxsus terminografik tadqiqot uchun ham amaliy ahamiyatga ega ekanligi yoritib berildi;

izohli lug‘atda mavjud astronomiyaga oid terminologik birliklar uchun sohaga doir materiallardan daliliy misollar keltirish o‘rinli ekanligi va terminlarni milliy lashtirish lozimligi misollar yordamida asoslandi.



**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** o‘rganilgan manbalarning o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berganligi, ularning asosli ekanligi, metodologik mukammalligi, o‘zbek tili izohli lug‘atida berilgan astronomiyaga oid birliklarni semantik teglash tamoyillarini yaratishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi, chiqarilgan ilmiy xulosalar amaliyotga joriy qilinganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o‘zbek tilining izohli lug‘atini tahrir qilish, boyitish, amaliy samaradorligini oshirishda ilmiy-nazariy va amaliy manba bo‘lishi, shuningdek, O‘zbek tili korpusini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda, kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida tadqiqotlar yaratishda ilmiy-nazariy manba bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishning amaliy leksikografiya (terminografiya) hamda korpus lingvistikasining fan sifatida o‘qitilishi jarayonida dastur, rejalar tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba sifatida xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida berilgan astronomiyaga oid terminlarning tahlili, tavsifi hamda tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

izohli lug‘atda astronomiyaga oid terminlar uchun tasviriy misollar berish bo‘yicha dalilning soha adabiyotlaridan olinishi zaruriyligi, o‘zakdosh so‘z-terminlarga leksik pometaning qo‘llanishi shartligi, izohli lug‘atlar uchun bir ma’noli va ko‘p ma’noli astronomiyaga oid terminlarning modellarini yaratish, ularni maxsus korpuslarda semantik teglashga doir ilmiy xulosalardan S-ECAGD-18-CA-0067 (P020002335) raqamli “FY 2018 English Access Microscholarship Program” (2020 – 2022) nomli Amerika Qo‘shma Shtatlari ta’lim va madaniy ishlar byurosi bilan hamkorlikdagi fundamental va ilmiy-amaliy loyihalarning nazariy qismida foydalanilgan (Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2023-yil 3-oktabrdagi 12.08/04-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot jarayonida yaratilgan dastur va qo‘llanmalar amaliy hamda milliy va maxsus korpuslarda astronomiyaga oid terminlarni semantik teglash, algoritmlash kabi amaliy yangiliklar bilan boyitilishiga, bu orqali ta’lim hamda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarning yanada samarali tashkil etilishiga erishilgan;

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan astronomiyaga oid terminlarning leksikografik sharhi bo‘yicha termin izohining havola usuli orqali boshqa so‘zga yo‘naltirilishi kabi takomillashtirilishi lozim bo‘lgan holatlar aniqlanib, kuzatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun to‘liqlik, ixchamlik, soddalik kabi tamoyillar tavsiya etilganligi haqidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a‘zolari tomonidan xalqimizning qadimiy tarixi, qomusiy olimlari, xususan, astronomiya sohasining rivojlanishiga hissa qo‘shgan allomalarimizning boy ma’naviy madaniy merosini targ‘ib etuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 27-maydagi №o1-03/617-sonli ma’lumotnomasi). Natijada yosh ijodkorlarni

yurtimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarni o'zida aks ettirishga qaratilgan yuksak badiiy asarlar yaratishga rag'batlantirish, o'zbek adiblari ijodini jahon adabiyoti darajasida namoyish etish hamda yoshlarning kitobga bo'lgan muhabbatini kuchaytiruvchi dasturlarning nazariy va amaliy jihatdan boyitilishiga erishilgan;

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da mavjud astronomiyaga oid terminlarning statistik va genealogik tavsifi amalga oshirilib, ularning turkiy, arabiy, forsiy, yevropa tillaridan o'zlashganligi; derivatsion jihatdan tub va yasama; struktur jihatdan sodda va qo'shma termin ekanligiga doir xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston” teleradiokanali, “Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta'lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon” nomli eshittirishlar ssenariysida (2023-2024 sentabr va mart oylari) foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston teleradiokanali” Davlat muassasasining 2024-yil 8-maydagi №02/36-626-sonli ma'lumotnomasi). Natijada astronomiya sohasiga oid ma'lumotlarning berilishida taklif qilingan illyustrativ terminlarning qo'llanilishi tinglovchilar tomonidan qiziqarli tarzda kutib olingan, bu esa dasturning yanada ommabop va original bo'lishini ta'minlagan, shuningdek, milliy va maxsus korpuslarda, televideniye saytlarida mazkur soha terminologiyasining semantik teglaridan unumli foydalanish dasturning mavzu jihatdan yanada rang-barang bo'lishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shulardan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 5 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad-vazifalari, predmeti va obykti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning “**O'zbek tilining izohli lug'atlaridagi astronomiyaga oid terminlarning genealogik, statistik va shakliy-struktur tavsifi**” deb nomlanuvchi **birinchi bobida** o'zbek tilining izohli lug'atlaridagi astronomiyaga oid terminlarning genealogik, statistik, shakliy-struktur tavsifi amalga oshirilgan. Bobning birinchi fasli “*O'zbek tilining izohli lug'atlaridagi astronomiyaga oid*”

*terminlarning genealogik tavsifi*” deb nomlanadi. Tillardagi soʻzlarning dastlabki kelib chiqish maʼnosi etimologik lugʻatlarda berilishi maʼlum. Ensiklopedik nashrlarda, jumladan, Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida, odatda, boshqa tildan oʻtgan soʻzlardagina etimologiya koʻrsatiladi. Tadqiqotimizda foydalanuvchiga qulaylik yaratish uchun sohaga oid muayyan soʻzning qachon?, qaysi tildan olingan?, qaysi til materiali asosida? kabi savollarga toʻliq javob berishni taʼminlash maqsadida Oʻzbek tilining izohli lugʻati (2 tomli va 5, 6 jildli)da mavjud astronomiyaga oid terminlarning genealogik jihatdan tahlili koʻrib chiqildi. Astronomiyaga oid terminlarning genezisini aniqlashda BTSRYA hamda Sh.Rahmatullayevning etimologik lugʻatiga asoslanildi.

Oʻzbek tilining (5, 6 jildli va 2 tomli) izohli lugʻatiga kiritilgan astronomiyaga oid terminlarning genetik xususiyati boʻyicha tasnifi quyidagicha: 1) umumturkiy; 2) sof oʻzbekcha; 3) arabiy; 4) forsiy; 5) rus tilidan yoxud rus tili orqali oʻzlashgan (internatsional); 6) fransuz tilidan oʻzlashgan; 7) lotin tilidan oʻzlashgan; 8) yunon (grek) tilidan oʻzlashgan.

Aytish mumkinki, izohli lugʻatda *astr.* ga oid sof ruscha terminlar uchramagan boʻlsa-da, fransuz, lotin, yunon (grek)tilidan oʻzlashgan soʻzlarning oʻzbek tilida termin sifatida qoʻllanishida rus tili muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur terminlarning fonetik va orfografik xususiyatlari ham aynan rus tili orqali oʻzlashtirilgan.

Genealogik tahlil natijalaridan maʼlum boʻldiki, 5, 6 jildli OʻTILda astronomiyaga oid umumturkiy soʻzlarning terminlashuvi 8,1 % ni; sof oʻzbekcha soʻzlarning termin sifatida qoʻllanishi 9,3 % ni tashkil etadi. Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarning termin sifatida berilishi 20,6 % ni, yunon tilidan oʻzlashgan soʻzlarning terminlashuvi 32,5 % ni va lotin tilidan oʻzlashgan soʻzlarning termin sifatida izohli lugʻatda belgilanishi 9,3 % ni koʻrsatib turibdi. Fors, fransuz va ingliz tillaridan olingan terminologik birliklar esa ushbu 5 jildli OʻTILdagi astronomiyaga oid terminlarning 3,1 %, 1,2 % va 0,6 % ini tashkil etadi.

Yuqoridagi kabi genealogik tahlil 2 jildli OʻTILda koʻrilganda astronomiyaga oid umumturkiy soʻzlarning termin sifatida qoʻllanish holati 9,3 % ni, arab tilidan oʻzlashgan terminlar 24,4 % ni, sof oʻzbekcha soʻzlar 10,7% ni tashkil etishi; rus tili va u orqali oʻzlashgan terminlar 0,6 % ni, lotin tiliga oidlari 15,1% ni, grek tiliga oid terminlar 28,7 % ni; shuningdek, izohli lugʻatlarning oz miqdorini 2,8 % fors va 1,4 % ni fransuz tillaridan oʻzlashgan astronomiyaga oid terminlar tashkil etganligi aniqlandi. Besh jildli izohli lugʻatda turkiy tillarga oid terminlarning umumiy ulushi 17,5% ni tashkil etgan boʻlsa, ikki tomli izohli lugʻatda bu koʻrsatkich 20,1% tashkil etadi. Umumiy hisobda oz miqdorda natija bergan boʻlishiga qaramay, katta farq bilan boʻlmasa-da, oʻzbek tilidagi astronomiyaga oid terminlarning berilishi 2 tomli izohli lugʻatda faolroq. Tafovutlarning mavjudligiga qaramay, astronomiyaga oid terminlarning aynan qaysi tildan oʻzlashganligi toʻgʻrisida maʼlumot olish mumkin boʻlgan ishonchliroq manba sifatida 5, 6 jildli izohli lugʻatni koʻrsata olamiz.

Bobning ikkinchi fasli “*Oʻzbek tilining izohli lugʻatlaridagi astronomiyaga oid terminlarning statistik tavsifi*” deb nomlangan boʻlib bu faslda 2, 5 va 6 jildli Oʻzbek tilining izohli lugʻatlari”dagi astronomiyaga oid terminlar ajratib olingan,

solishtirilgan va ular statistik tahlil qilingan. Statistik tahlil atroflicha bajarilgan bo‘lib, quyidagi semantik, morfologik, struktur xususiyatlariga ko‘ra amalga oshirilgan: astronomiyaga oid terminlarning umumiy miqdori; so‘z turkumlari bo‘yicha miqdori; 2, 5, 6 jildlida umumiy berilgan terminlar miqdori; 2, 5, 6 jildli lug‘atning bir-birida takrorlanmagan terminlari; ko‘p ma‘noli bo‘lsa, barcha ma‘nosi astronomiyaga oid bo‘lgan terminlar miqdori; ko‘p ma‘noli so‘z bo‘lsa, bir ma‘nosi astronomiyaga oid bo‘lgan terminlar; bosh ma‘nosi astronomiyaga oid bo‘lgan terminlar; bir ma‘noli astronomiyaga oid terminlar; hosila (ko‘chma) ma‘nosi astronomiyaga oid bo‘lgan terminlar; o‘z qatlam terminlar; o‘zlashgan qatlam terminlar; sodda terminlar; murakkab terminlar; juft terminlar; tub terminlar; hosil qilingan (yasama) terminlar; umumiste‘mol terminlar miqdori; eskirgan terminlar miqdori.

Statistik tavsifni yana bir nechta mezonlar asosida davom ettirish mumkin, biroq tadqiqotimizning obyektini sifatida belgilangan har ikki izohli lug‘atlardagi astronomiyaga oid terminlarning lug‘atlardagi tartibini va mukammalligini takomillashtirish masalasiga oydinlik kiritish maqsadida yuqorida biz tomonimizdan o‘rganilgan statistik tadqiqot mezonlarining o‘zi yetarli deb topdik. Zotan, bugungi ilm-fan va texnika rivojlangan asrda osmon ilmi ixtisosligi bo‘yicha izohli lug‘atlarda berilgan terminlar miqdori keng tarmoqli soha hisoblanadigan astronomiya sohasining sir-sinoatga boy voqeliklarini yoritib berish uchun nisbatan kam ekanligi, mavjudlari ham umumiy tushunchalarni ifodalovchi terminlardan iborat ekanligining o‘zi lug‘atlarni takomillashtirish qay darajada muhimligini ko‘rsatib turibdi.

Shuningdek, tadqiqotda O‘TIL (2, 5, 6 jildli)da mavjud astronomiyaga oid terminlarning sohaga xosligini asoslovchi pometa ega yoki ega emasligi masalasiga ham e‘tibor qaratildi. Natijalarga ko‘ra *astr.* pometasini olgan terminlar 2 jildlida 37 ta, 5, 6 jildlida 42/43 ta ekanligi aniqlandi.

Qolgan 100/118/119 ta termin ham *astr.* pometasini olishga haqli ekanligi soha mutaxassislari bilan hamkorlikda olib borilgan amaliy tahlillar orqali dalillandi (Asos:Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent, Muslimova Yulduz Choriyevnaning taqrizi).

Bobning uchinchi fasli “*O‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi astronomiyaga oid terminlarning formal-struktur tavsifi*” masalasiga bag‘ishlangan. Astronomiyaga oid terminlarning qurilish jihatlari quyidagi guruhlariga ajratib tadqiq etildi: 1. Sodda (terminlar). 2. Qo‘shma (terminlar). 3. Juft (terminlar). 4. Birikma (terminlar).

Sodda terminlar. Bu turdagi terminlar bir asosli bo‘lib, ularda yaxlit ma‘no ifodalanadi. O‘zbek terminosistemasida mavjud astronomiyaga oid sodda terminlarni yasashiga ko‘ra quyidagi ikki guruhga ajratish asosli: sodda tub terminlar; sodda yasama so‘z shaklidagi terminlar. 5 va 6 jildlida berilgan sodda tub terminlar 83 ta: *aberratsiya, azimut, aviatsiya, apogey, Asad....*

Yasama terminlar, shubhasiz, o‘zbek terminologiyasining katta qismini tashkil etadi. 5 va 6 jildlida berilgan sodda yasama so‘z shaklidagi terminlar 12 ta: *bo‘shliq, Yo‘ldosh, osmoniy, samoviy, tumanlikl.*

Qo'shma terminlar. Qo'shma astronomiyaga oid terminlar birdan ortiq asosdan tashkil topadi va asoslar (so'zshakl) mazmunan bitta tushunchani ifodalashga yo'naltiriladi: 2 tomlida 9 ta: *Zulqa'da, Zulhijja, Karvonqush*; 5 jildlida esa 9 ta: *Oltingoziq, radiolokator, radiozond...*

O'zbek tilining izohli lug'ati (5, 6 jildli)ga birgina juft termin kiritilgan: *gamma-astronomiya*. Bu termin 2 tomlida berilmagan.

Sohaga oid mavjud lug'atlar terminosistemasida birikma terminlar miqdor jihatidan boshqa struktur tuzilishga ega terminlarga nisbatan ko'proqni tashkil etgan holda, astronomiya sohasiga oid terminosistemada buning aksini ko'rishimiz mumkin.

Birikma terminlar. Bu kabi terminlar ham boshqa murakkab lug'aviy birliklar singari ikki va undan ortiq leksik birliklardan tarkib topadi va ular birikma holda bir tushunchani ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *dumli yulduz, Yetti og'ayni, Yetti qaroqchi, Katta Ayiq, Kichik Ayiq* kabilar.

Ikki uzvli birikma terminlar sodda so'z birikmasidek ko'rinsa-da, ma'noviy to'liqlikka ega bo'ladi va uzvlar o'rtasida shaklan hokim-tobelik munosabati sezilib turadi. 2 tomli va 5, 6 jildli O'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilgan birikma terminlar 9ta (*Dumli yulduz, Somon yo'li, Katta Ayiq* kabi) ekanligi aniqlandi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbek tilining izohli lug'atlari (2 tomli va 5 jildli)da berilgan astronomiyaga oid terminlar tuzilishi jihatdan *sodda, qo'shma, juft, birikma* terminlar guruhlariga birlashadi. Birikma shaklidagi astronomiyaga oid terminlarning soha mansub bo'lgan terminosistemada miqdoriy ko'rsatkichi baland, chunki bunday birikma terminlar tarkibida murakkab astronomiyaga oid mazmun ifodalanadi (osmon sferasi, vaqt tenglamasi, orbita elementlari, tropik yo'l, kosmik tezliklar). Shu bois, O'TILning yangi tahriri tayyorlanishi jarayonida astronomiyaga oid bosh so'z shaklidagi birikma terminlarning ko'proq berilishiga e'tibor qaratish zarur.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi "O'zbek tilining izohli lug'atlaridagi astronomiyaga oid terminlarning semantik xususiyatlari"** deb nomlanib, unda o'zbek tilining izohli lug'atlaridagi astronomiyaga oid terminlarning semantik tuzilishi, xususiyatlari, bir va ko'p ma'noli astronomiyaga oid terminlar hamda leksik-semantik munosabatlarga ko'ra astronomiyaga oid terminlar tavsifi masalalari batafsil tahlil etilgan. Bobning "*O'zbek tilining izohli lug'atlaridagi astronomiyaga oid terminlarning semantik tuzilishi, xususiyatlari*" deb nomlangan birinchi faslida "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2, 5, 6 jildli)da qayd etilgan astronomiyaga oid terminlar semantik nuqtayi nazardan o'rganilgan. Tilshunoslikda maydon nazariyasi borasida bajarilgan bir qancha tadqiqotlarda maydonlarni ajratish va tushunishda qator ilg'or fikrlar yuzaga kelgan<sup>6</sup>. O'TILda berilgan astronomiyaga oid terminlarning umumiy belgi atrofida birlashib, o'ziga

<sup>6</sup> Bu haqda to'liq ma'lumot olish uchun qarang: Уфимцева А. А. Теория «семантического поля» и возможности их применения при изучении словарного состава языка // Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистике. – М., 1961. – С. 28-44. Щур Г. С. Теория поля в лингвистике. – М.-Л., 1974. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent, 1995. Iskandarova Sh. Leksikani mazmuniy maydon asosida o'rganish. Toshkent, 1998. Nurmonov A, Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent, 2001. – B. 91-94.

xos belgilari bilan ana shu umumiy belgiga ziddiyat hosil qila olishi izohli lug‘atda berilgan astronomiya sohasiga oid terminlarning o‘z semantik maydoniga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan astronomiyaga oid terminlarning semantik maydon hosil qilishiga doir misollarga murojaat qilamiz. *Qo‘y*, *Qisqichbaqa*, *Tarozi* terminsememalari “burj nomlari”, “oylarning nomlanishi” semalari bilan umumiylikni hosil qilgan holda, “bahor”, “yoz”, “kuz” semalari bilan o‘zaro farqlanmoqda. *Yer*, *YupiterI*, *Merkuriy* kabi astronomiya sohasiga oid terminsememalar umumiy “osmon jismi”, “planeta nomi” semalari orqali bir mazmuniy maydonga birlashgan va shu jarayonning o‘zida “hayot mavjud”, “hayot mavjud emas” semalari orqali differensiyalashmoqda.

Semasiologiya tilshunoslikning ma‘no haqidagi sohasidir. Unda lug‘aviy birliklarning mazmuniy tuzilishi o‘rganiladi. O‘zbek tilshunosligida M.Mirtojiyev so‘z semantikasi, leksik ma‘no, uning chegarasi, semantik tarkibi, taraqqiyoti, tiplari, miqdoriga ko‘ra so‘z tiplari, sinonim, antonim va korrelyativ so‘zlarning mohiyati haqida keng to‘xtalib o‘tgan<sup>7</sup>. Leksemaning mazmuniy tuzilishi tarkibi leksema, semema va ma‘no ottenkalari (denotativ, konnotativ va ekspressiv)dan iborat bo‘ladi. Ana shunday LMS+turli ma‘no ottenkalariga ega bo‘lgan terminlar (leksema, semema, sema) “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan *astr.* belgili terminlarning ozchilik qismini tashkil etadi. Bunday terminlar, asosan, o‘z qatlamga doir xalq tilidan olingan terminlardir

Izohli lug‘atlarda terminning lug‘at maqolasi sifatida beriladigan ma‘no turiga signifikativ – “sof lug‘aviy ma‘no” deyiladi. Sof lug‘aviy ma‘no terminning borliqdagi ma‘nosi hisoblanadi. *Quyosh* leksemasining lug‘aviy ma‘nosi “kuchli issiqlik va yorug‘lik quvvatiga ega fazoviy jism”dir. Bunday ma‘no belgining boshqa lug‘aviy birliklardan farqlash maqsadida tanlab olinishi natijasida yuzaga keladi.

Terminlarning mazmuniy tarkibi tavsifining semantik-struktur jihatdan izchillik bilan tadqiq etilishi ulardan amaliy foydalanishda, xususan, astronomiyaga oid terminlarning lug‘at uchun maxsus tavsifini yaratish, ularning terminlik ta‘rifini mukammallashtirish, shuningdek, sohalar doirasida ixtisoslikka doir terminlarni tanlab olib, lug‘atga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

*Bobning ikkinchi fasli “Bir va ko‘p ma‘noli astronomiyaga oid terminlar”* deb nomlanadi. Sohalararo leksema va terminlarni tahlil qilish, izohlash nuqtayi nazaridan polisemiya, sinonimiya va omonimiya kabi lingvistik hodisalarning namoyon bo‘lishi terminologiyada yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan. Umumiy soha leksikasi bilan taqqoslaganda terminlarning sinonimik qatorlari mavjud yoki mavjud emasligi, terminlarni shakllantirish vositalari, terminlarning nominativ va definitiv funksiyalarini ta‘minlaydigan muhim xususiyatlari muloqot va qo‘llanishda muayyan darajada cheklangan bo‘ladi<sup>8</sup>. Leksik birliklarning bir necha ma‘no ifodalashi ko‘p ma‘noli, so‘zlarning ma‘nodosh bo‘lib kelishi sinonimiya, o‘xshash shakllarning turlicha ma‘nolarni anglatishi omonimiya, ikki

<sup>7</sup> Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi/Monografiya- T.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. - 288 b.

<sup>8</sup> Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – Б. 57.

soʻzning zid maʼnoga ega boʻlishi antonimiya deb nomlanuvchi lingvistik hodisa ekanligi maʼlum. Bunday lingvistik hodisalar astronomiya sohasiga oid terminologiyaning shakllanishida ham muhim. Astronomiya sohasiga oid terminlarda ham bir va koʻp maʼnolilik hodisasining mavjudligi astronomiya fanining fanlararo yondashuvi natijasi ekanligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning bu faslida Oʻzbek tilining izohli lugʻati (2, 5, 6 jildli)da berilgan astronomiyaga oid terminlarning bir va koʻp maʼnolilik jihatlari koʻrib chiqildi va olingan xulosalar asosida takliflar berildi. OʻTILda keltirilgan astronomiya sohasiga oid bir maʼnoli terminlar:

- 5 jildlida 85 ta.
- 6 jildlida 85 ta.
- 2 tomlida 52 ta.

Bosh maʼnosi astronomiyaga oid boʻlgan terminlar:

- 5 jildlida 17 ta: *Atorud(Utorud, Merkuriy), atmosfera, Zuhra...*
- 6 jildlida 17 ta: *osmon, Sayyora...*
- 2 tomlida 16 ta: *atmosfera, Zuhra, osmon, Sayyora...*

Hosila (koʻchma) maʼnosi astronomiyaga oid boʻlgan terminlar soni:

- 5 jildlida 26 ta: *qora guruhlar, Baliq I, Yetti Qaroqchi, Kichik Ayiq, Katta Ayiq...*

- 6 jildlida 26 ta.
- 2 tomlida 22 ta: *Baliq, Yetti Qaroqchi, Kichik Ayiq, Katta Ayiq, Mezon.*

OʻTIL (2, 5, 6 jildli)dagi astronomiya sohasiga oid terminlarning polisemantik xususiyatlarini tadqiq etish natijasida 5 jildli izohli lugʻatda 38 ta, 6 jildli izohli lugʻatda 38 ta, 2 tomlida izohli lugʻatda 32 ta polisemantik terminlar mavjudligi aniqlandi. Ular koʻp maʼnoli boʻlsa, barcha maʼnosi yoki bittadan ortiq maʼnosi astronomiyaga oid boʻlgan terminlar va koʻp maʼnoli soʻz boʻlsa, bir maʼnosi astronomiyaga oid boʻlgan terminlar sifatida guruhlanib tahlil qilindi.

*Koʻp maʼnoli boʻlsa, barcha yoki birdan ortiq maʼnosi astronomiyaga oid boʻlgan terminlar:*

- 5 jildlida 17 ta: *Asad, Aqrab, Dalv.*
- 6 jildlida 17ta.
- 2 tomlida 16 ta: *Asad, Aqrab, Dalv, Javzo.*

*Koʻp maʼnoli soʻz boʻlsa, faqat bir maʼnosi astronomiyaga oid boʻlgan terminlar:*

- 5 jildlida 12 ta.
- 6 jildlida 12 ta.
- 2 tomlida 13 ta.

Izohli lugʻatda koʻp maʼnoli soʻzlarning astronomiya sohasiga oid termin sifatida berilishida ayrim farqlar mavjud: 1) astronomiya sohasiga oid terminning koʻp maʼnoli soʻz sifatida berilishi; 2) koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼnolaridan bittasi (yoki bittadan ortigʻi) terminlik kasb etishi.

Terminshunoslikda koʻp maʼnolilik hodisasi ham juda muammoli va bahs-munozaralarga boy masalalardan. Aksariyat olimlar bu hodisani terminologiya uchun maqbul boʻlmagan va uning qonuniyatlariga zid boʻlgan hodisa sifatida

baholaydilar<sup>9</sup>. Shunday bo'lsa-da, polisemantik leksemaning semantik qirralari jamiyat hayotining moddiy, ma'naviy va iqtisodiy rivojlanishini o'zida aks ettirishi bilan leksikografik jihatdan ahamiyatlidir.

Bobning uchinchi fasli "*Leksik-semantik munosabatlarga ko'ra astronomiyaga oid terminlar tavsifi*" deb nomlanadi. O'zbek tilshunosligining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladigan astronomiyaga oid terminlarning mazmuniy tuzilishidagi farqlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlarni belgilash, ulardagi o'ziga xosliklar – denotativ, baho semasi hamda vazifaviy jihatlarni aniqlash, leksemalarning mazmuniy munosabatlarini tadqiq etish ularning lisoniy qiymatini belgilashda o'ziga xos ahamiyatga ega. Astronomiyaga oid terminlarning borliqdagi ma'nosi asosida uning nafaqat til tizimidagi o'rni, balki mazkur terminning leksik-semantik guruhga mansubligi, astronomiya sohasi tarmoqlarida ma'lum jarayon yoki nomni atovchi birlik sifatida muayyan semantik maydon hosil qilishi ham ko'rsatib o'tildi. Masalan: *Quyosh, Yer, Saturn, Venera, Mars, Merkuriy, Neptun, Uran* kabi xususiy jihatlari bilan o'zaro farqlanuvchi astronomiyaga oid terminlar umumiy *planeta* ma'nosi bilan bitta guruhni tashkil etadi. Ko'rinadiki, aynan leksik-semantik munosabatlar ularni astronomiyaning turli tarmoqlariga oid narsa otini bildiruvchi bitta mazmuniy maydonga birlashtigan. Shu bilan birga, *Yer* leksemasi bilan *Quyosh, Saturn, Venera, Mars, Merkuriy, Neptun, Uran* leksemalari astrobiologik jihatiga ko'ra antonimlikni hosil qilgan. Ya'ni, "Yer" leksemasi boshqa leksemalar bilan "hayot mavjud" va "hayot mavjud emas" semalari orqali antonimlikni hosil qilgan. Bu kabi antonimik munosabat va shunga o'xshash semantik munosabatlar esa astronomiyaga oid birliklarni umumiy semantik maydonga birlashtiradi.

Tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki, sinonim terminlar va sinonim so'zlar tavsif hamda xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Ma'nodosh umumiste'mol birliklar – sinonim so'zlar uslubga xoslangan bo'ladi. Terminosinonimiyada esa uslubga xoslanish kuzatilmaydi. Sinonim terminlarning semalari tushuncha va obyektga to'liq mos bo'ladi. Shuning uchun bu kabi sinonimlar ba'zi tilshunoslar tomonidan terminologik dubletlar deb ataladi<sup>10</sup>.

Mazmuniy munosabatiga ko'ra astronomiya sohasiga oid terminlar quyidagi turlarga bo'lindi: 1) astronomiya sohasiga oid voqelik, jarayon va narsa otlarining vaziyat bilan bog'liq ishtirokini bildiruvchi; 2) astronomiya sohasiga oid jarayonlarda qo'llanuvchi ishchiquroq nomlarini anglatuvchi; 3) astronomiya sohasiga oid holat va jarayonlarni ifodalovchi; 4) astronomiyaga bog'liq mavjud soha terminlari.

Astronomiya sohasiga oid terminlarning signifikativ ma'nosi asosida uning nafaqat til sistemasidagi o'rni – qaysi leksik-semantik guruhga mansubligi, balki soha tarmoqlarining xususiyatini yoki nomni atovchi birlik ekani asosida muayyan guruhga tegishli termin ekani ham belgilab beriladi (masalan, astronomiyaga oid terminlarning astronomiyaning mavjud tarmoqlari bo'yicha leksik-semantik guruh

<sup>9</sup> Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С. 57.

<sup>10</sup> Sobirova E. O'zbek tilining izohli lug'atida huquqiy terminlarning berilishi: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent: Fil. fan. bo'yicha falsafa dokt. (PhD) dis.. – Toshkent, 2022. – 168 b.



hosil qilishi: *astrometriya, astrofizika, radioastronomiya, osmon mexanikasi, yulduzlar astronomiyasi, kosmogoniya, kosmologiya*).

Terminlarning mazmuniy tarkibi tavsifining semantik-struktur jihatdan izchillik bilan tadqiq etilishi ulardan amaliy foydalanishda, xususan, astronomiyaga oid terminlarning lugʻat uchun maxsus tavsifini yaratish, ularning terminlik taʼrifini mukammallashtirish, shuningdek, sohalar doirasida ixtisoslikka doir terminlarni tanlab olib lugʻatga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi “Oʻzbek tilining izohli lugʻatlaridagi astronomiyaga oid terminlarning tavsifini takomillashtirish vazifalari”** deb nomlanib, unda mavjud izohli lugʻatlardagi astronomiyaga oid terminlar tavsiflarini takomillashtirish masalalari, izohli lugʻatlarda astronomiyaga oid terminlar uchun tasviriy misollarning berilishi va lugʻatga kiritilishi kerak boʻlgan terminlar hamda astronomiyaga oid terminlarni korpusda semantik teglash muammosi va yechimi masalalari atroflicha tahlil etilgan.

Bobning birinchi fasli “*Izohli lugʻatlardagi astronomiyaga oid terminlar tavsiflarini takomillashtirish masalalari*” deb nomlanadi. Unda izohli lugʻatda atamani aniqlash usullari va ular bilan bogʻliq yuzaga keladigan leksikografik qiyinchiliklar tahlilga tortilib, amaliy yechim taklif etilgan. Akademik L.V.Shcherba<sup>11</sup>, A.A.Shaxmatov, X.Kasares, V.Doroshevskiy va boshqa olimlar bu borada oʻz mulohazalarini bildirib oʻtganlar va leksikografik tajribalaridan maʼlumotlarni taqdim etganlar. Izohli lugʻat tuzishda terminlarni ajratish va izohlash masalasida jahon tajribasini oʻrganish muhim bosqich hisoblanadi. Maʼlumki, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” asosiy leksikografik manba hisoblanadi. Oʻzbek tilining asosiy lugʻati sanalgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” (2023) qayta tahrir etilgan boʻlsa-da, oldingi nashrda mavjud ayrim kamchiliklar bartaraf etilmagan. Tadqiqot obʼyekti boʻlgan astronomiya sohasiga oid terminlar misolida aytish mumkinki, mazkur izohli lugʻatda keltirilgan *astr. pometali* terminlarning baʼzilar kamchiliklari bartaraf etilmagan holda berilgan. Ushbu faslda mazkur izohli lugʻatda mavjud astronomiyaga oid terminlarning izohini berish masalasiga oid fikrlar, takliflar bayon etiladi.

OʻTILda, odatda, terminlar fan sohasiga oidlikni bildiruvchi pometa, yaʼni leksikografik izoh bilan belgilanadi. “OʻTIL”dagi izohdan maʼlum boʻladiki, astronomik terminlarga *astr. pometasi* qoʻyilgan. Ammo shunday mazmunli soʻzlarning koʻpchilik qismiga hech qanday belgi qoʻyilmagan. Masalan, quyida *Yer* leksemasining sememalarini kuzatamiz: **YER 1** Quyoshdan keyingi uchinchi planeta. *Yer shari. Yer aylanasi. Yer Quyosh atrofida aylanadi. Yerning sunʼiy yoʻldoshi.* **2** Shu planetaning quruklik qismi (suv bilan qoplangan qismiga qarama-qarshi qoʻyilganda). *Yer planetamizning oltidan bir qismini tashkil etadi.* **3** Planetamiz qobigʻining sirtqi qatlami. *Yer bagʻri. Yer osti boyliklari. Qora (qaro)*

---

<sup>11</sup>Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии. – Л., 1958. – С. 68; Касарес Х. Введение в современную лексикографию. – М., 1958. – С. 289-299; Дорошевский В. Элементы лексикологии и семиотики. – М., 1973. – С. 253-254.

*yerga kirgur!* (*qarg'*). *Yer yutgur!* (*qarg'*). *Osmon uzoq, yer qattiq.* Maqol. *Bir vaqt yer osti dukillagandek bo'ldi.* A. Qodiriy, Mehrobdan chayon<sup>12</sup>.

